

## TIJORAT BANKLARINI TO'LOVGA QOBILLIGINI TA'MINLASH VA MUAMMOLI AKTIVLARNI KAMAYTIRISH

*Sharobidinov Nuriddin Faroxiddin o'g'li*  
*O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi*  
*Tijorat Banklarini boshqarish magistratura ( sirtqi)*  
*24-02 chi guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari kredit portfeli riskliligini kamaytirish choralari ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Maqolada bank kredit portfelida muammoli kreditlar tushunchasi, kredit portfeli sifati, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining muammoli kreditlari tahlili, banklarda muammoli kreditlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, kredit portfeli, kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar (NPL)

**Аннотация:** В условиях цифровой экономики важной задачей является разработка мероприятий по снижению рискованности кредитного портфеля коммерческих банков. В статье представлены понятие проблемных кредитов в кредитном портфеле банков, качество кредитного портфеля, анализ проблемных кредитов коммерческих банков Республики Узбекистан, предложения по совершенствованию управления проблемными кредитами в банках.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, кредитный портфель, качество кредитного портфеля, проблемные кредиты (NPL)

**Abstract:** In the context of the digital economy, an important task is to develop measures to reduce the riskiness of the loan portfolio of commercial banks. The paper presents the concept of problem loans in the loan portfolio of banks, the quality of the loan portfolio, analysis of problem loans of commercial banks of the Republic of Uzbekistan, proposals for improving the management of problem loans in banks.

**Keywords:** commercial bank, loan portfolio, loan portfolio quality, problem loans (NPL)

To'lovga qobilyatini ta'minlash – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. To'lovga qobilyatini ta'minlash maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. To'lovga qobilyatini ta'minlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi To'lovga qobilyatini ta'minlashni ta'minlash bir qator mamlakatlar markaziy banklari faoliyatining ustuvor

yoʻnalishlaridan biridir. Buning sababi shundaki, zamonaviy iqtisodiyotda pul-kredit va boshqa davlat organlari oldiga qoʻyilgan vazifalar sifatida inflyatsiya va ishsizlikning past darajasi, yuqori iqtisodiy oʻsishni taʼminlash iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga pul-kredit siyosatini oʻtkazuvchi barqaror moliya tizimi yordamisiz hal qilib boʻlmaydi. Toʻlovga qobilyatini taʼminlash koʻpgina mamlakatlarda Markaziy bankning zimmasiga yuklatiladi. Markaziy bank ushbu vazifani moliya tizimidagi risklarni baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, moliya va toʻlov tizimini nazorat qilish va tartibga solish, zarurat tugʻilganda muammoli va tugatilayotgan bankrot banklar uchun oxirgi instansiya kreditori rolini bajarish hamda qayta tashkil etish tartib-taomillarini amalga oshiradi. Markaziy bank tomonidan qoʻllaniladigan toʻlovga qobilyatini taʼminlash vositalari:

- Xatarlarning ( risklarning) tahlili va baholanishi;
- bozor ishtirokchilari tomonidan risklarni idrok etish, xabardorligini oshirish va ularning manfaatlarini himoya qilish boʻyicha tadbirlarni amalga oshirish;
- moliyaviy infratuzilmalarni nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish va zarur hollarda likvidlikni taʼminlash;
- oxirgi instant kreditor funksiyasini qoʻllash;
- Toʻlovga qobilyatini taʼminlash masalalari boʻyicha qoʻmita va boshqa vositalar.

Mumkin boʻlgan risklarni aniqlash va cheklash maqsadida Markaziy bank doimiy ravishda mamlakat iqtisodiyoti va jahon moliya tizimini, makroiqtisodiy koʻrsatkichlarni tahlil qiladi, bozorlar monitoringini olib boradi, ichki toʻlov va hisob-kitob tizimlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ushbu bosqichda moliya tizimini tahlil qilishning tarkibiy qismlari moliya tizimining boʻgʻinlari (moliya institutlari, moliyaviy infratuzilmalar va moliyaviy bozorlar) va makroiqtisodiyot kiradi. Moliyaviy tizimning ehtimoliy risklar yuzaga kelganda zaiflik darajasini baholash uchun Markaziy bank xalqaro amaliyotda keng qoʻllaniladigan stress testlarini qoʻllaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bogʻliqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli aktivlarning mavjudligi sezilarli boʻlmoqda.

Banklar jalb qilingan mablagʻlardan asosan kredit berish sifatida foydalanar ekan, bunda nafaqat daromad olish, balki mablagʻlarni “kredit oluvchi” dan toʻlaligicha undirib olish masalasini oldindan belgilab olishi zarur. Chunki, bank sarmoya egasi

sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanish huquqini ma'lum bir shart va ustama foizlar bilan sotadi.

Ayni paytda bizning mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchilar doiralarida “muammoli aktiv” tushunchasi avvaliga nisbatan ancha ko'proq qo'llanilmoqda va bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, bejiz emas, chunki bugungi kunda respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushi ancha yuqori foizni tashkil etmoqda.

Shu bois, tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir.

Ilmiy adabiyotlarda muammoli aktivlarga bir qancha ta'riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar – bu muammoli aktivlar shakliga kirgan qo'yilmalardir deb ta'riflansa, ayrim adabiyotlarda muammoli aktivlar deganda, obyekt, subyekt va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit deya ta'rif berilgan. Shuningdek, agar berilgan kredit muammoli ta'minotga ega bo'lsa va ushbu ta'minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo'lsa, bu holda ushbu kredit muammoli aktiv hisoblanadi.

Muammoli aktivlar – sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlarga aytiladi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, muammoli aktivlar kredit risklarining amalda yaqqol namoyon bo'lishining natijasidir, ya'ni kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslik oqibati bo'lib hisoblanadi.

Muammoli aktivlar birdaniga sodir bo'lmasdan uning elementlari kreditlash jarayonida asta-sekin yuzaga kela boshlaydi. Muammoli aktivlar doimiy monitoring olib borilmasligi natijasida ham sodir bo'ladi.

Muammoli aktivlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, banklarning muammoli aktivlarini yuzaga kelishida ichki omillari bo'yicha 67% yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Bu ko'rsatkich tashqi omillar bo'yicha bor-yo'g'i 33% ni tashkil etadi.

Muammoli aktivlar odatda, qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning hisobida mablag'lar bo'la turib kreditni to'lashni xohlamaganda ham yuzaga kelishi mumkin. Muammoli aktivlar yuzaga kelish ehtimoli paydo bo'lganda banklar ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zahiralari shakllantiradilar.

Banklar faoliyatida muddati o'tgan qarzdorliklarning umumiy miqdori NPL (ingl. “Non-performing loan” so'zidan olingan bo'lib, “ishlamaydigan kredit” ma'nosini anglatadi) ko'rsatkichi bilan o'lchanadi. Muammoli aktivlar odatda, qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning hisobida mablag'lar bo'la turib kreditni to'lashni

xohlamaganda ham yuzaga kelishi mumkin. Muammoli aktivlar yuzaga kelish ehtimoli paydo bo'lganda banklar ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zahiralari shakllantiradilar.

Banklar faoliyatida muddati o'tgan qarzdorliklarning umumiy miqdori NPL (ingl. "Non-performing loan" so'zidan olingan bo'lib, "ishlamaydigan kredit" ma'nosini anglatadi) ko'rsatkichi bilan o'lchanadi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: Markaziy bankdan qarz mablag'larini olish imkoniyatlarini kengaytirish, miqdoriy kengaytirish siyosatini qo'llash, favqulodda likvidlikni oxirgi chora sifatida ta'minlash va boshqalar. Kapital monandlilik koeffitsiyenti banklar to'lov qobiliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bazel III standartlariga ko'ra, bank jami kapitalining monandlilik koeffitsiyenti riskka tortilgan aktivlarga nisbatan kamida 8 foiz bo'lishi tavsiya etilgan. Bundan tashqari, Bazel III standartlarida bank kapitaliga nisbatan konservatsiya buferi (2,5 foiz), kontrsiklik kapital buferi (0–2,5 foiz), mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi (aniq chegarasi belgilanmagan) kabi qo'shimcha talablarni o'rnatish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda tijorat banklari uchun kapital monandlilik koeffitsiyenti 13 foiz qilib belgilangan. Markaziy bank Bazel III tavsiyalariga mos ravishda kapitalga qo'yilgan minimal me'yoriy talablarini bosqichma-bosqich o'zgartirdi. Bugungi kunda O'zbekistonda kreditni garov qiymatiga nisbati va kredit to'lovini daromadga nisbati kabi makroprudensial vositalar amaliyotda qo'llanib kelinmoqda. Bunga sabab oxirgi yillarda hajmi ortib borayotgan avtoullov va ipoteka kreditlaridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumoti [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
2. Xalqaro valyuta fondining "To'lovga qobiliyatini ta'minlash ko'rsatkichlari" qo'llanmasi.2007y. \
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "To'lovga qobiliyatini ta'minlash sharhi" tahlili 2022y.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 26/7-sonli qarori, 2017y.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzlari) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 24/5-sonli qarori, 2019y.